

HUQUQ FANLARINI O'QITISHDA KEYS-STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Baxodirjonov Shohboz Gulshanzoda

*Qo'qon davlat pedagogika instituti ,tarix fakulteti milliy g'oya manaviyat
asoslari va huquq talimi yo'nalishi 401-guruh talabasi.*

Annotatsiya: Maqolada ta'lif muassasalarida o'quvchilarga huquq fanlarini o'qitishda keys - stadi texnologiyasidan samarali foydalanish, ularning mavzularni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baxolashda qo'llaniladigan texnologiyalar juda katta samarali dars tashkil etish imkonini berishi taxlil qilindi.

Kalit so'zlar: huquqiy savodxonlik, xulq atvor, pedagogik, interfaol metodikalar, keys-stadi, huquq soxalari, ta'lif jarayoni obekti, dars jarayoni, pedagogik faoliyat.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lif tizimini tubdan isloh, zamon talablarga mos dars jarayonlarini tashkil qilish ta'lif tizimi oldida turgan ustuvor masalardan biridir. Jamiyatimizning ravnaqini va kelajagini belgilab beruvchi bu ta'lif tizimidir.

Mamlakatimizda voyaga yetib kelayotgan har bir yosh avlodni ham ma'nan ham jismonan sog'lom barkamol qilib kamol toptirish bizning asosiy ustuvor vazifalarimizdan biridir.

Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lif-tarbiya modelini amaliyotga tadbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu dastur mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lif jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga etkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'r ganib, ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan, shu sababli ham hozirda ta'lif tizimizda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv jarayonlarda tashkil qilish yuzasidan amaliy harakatlar olib borilmoqda .

Bu yerda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni ilmiy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiq etish zaruriyati tug'ildi degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni yetishtirib kelgan o'qitish usslublari mavjudku, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarni o'zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi?- degan mulohazalar ham yo'q emas.

O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchilikning aksariyati, aynan mana shu yo'lidan bormoqda. Bu yo'l ilojsizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq hizmat qila olmaydi.

Chunki:

Birinchidan: ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rinni olishi uchun, aholi ta'lim olishini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlaridan foydalanish zarurligi;

Ikkinchidan: an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "Axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

Uchinchidan: Fan-texnika taraqqiyotininig o'rta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

To'rtinchidan: kishilik jamiyat o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

Beshinchidan: yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kishining jamiyatdagi xulq atvorini tartibga soluvchi qoidalar tizimi axloq hisoblanadi. O'zbekiston hududida ming yillar davomida shakillangan milliy axloq normalari milliy huquq tizimining shakilanishida ha qiluvchi ahamiyatga kasb etgan.biz pedagoglarning oldiga qo'ygan asosiy va muhum masalalardan biri bu bugungi kunda ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan va obekti sanalgan o'quvchi yoshlarga huquqiy bilim ko'nikma malakalarini to'g'ri va oson usullar bilan yetkaza olish sa'atini egalashdir.

Xo'sh buning uchun pedagog o'z faoliyatida nimalarga etibor berishi kerak?

Eng muhum masalardan biri pedagogning zamonaviy innovatsion texnologiya va interfaol metodikalardan foydalana olish bilim ko'nikma malakainin puxta egalashidir. Umumiyligi o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga "Huquqiy bilim berishda interfaol metodikalardan "KEYS-STADI" texnologiyasidan foydalanish" texnologiyasini tavsija etamiz. Bu texnologiya o'quvchilarga o'quv predmetini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muamoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol

o'zlashtirilishi uchun imkoniyatlар yaratади, бундаб тасгъари енг мухуми о'кувчи вазият holat yuzasidan mustaqil xulosa, fikrlar berish jarayonida huquqiy bilishning imkoniyatlari huquqiy normalarga amal qilmaslikning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini o'z kichik tajribasidan mavzu yoki muammo yuzasidan bildirilayotgan fikrlardan ham bilib oladi. Pedagog dars jarayonida o'quvchini bilim ko'nikmasini oshirib qolmasdab uning huquqiy savodxonligi o'z imkoniyatlardan foydalana olishini ham o'rgatishi zarur. Bularni amalgam oshirishda o'qituvchi pedagog "KEYS-STADI" texnologiyasidan foydalanishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida ta'li olayotgan o'quvchilarga mavzularni o'zlashtirishda va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baxolashda qo'laniladigan texnologiyalar judda katta samarali dars tashkil etish imkonini beradi.

O'zbekiston davlat va huquq asoslari fanidan "Huquq soxalari" mavzusi bo'yicha

Har qanday jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun ma'lum bir huquq tizimi zarur. Bu tizim turli—tuman, lekin o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan huquq normalari yig'indisidan iborat bo'ladi. Qaysi huquq normasini qaysi obektga nosbatan ishlatalish lozimligini aniqlashtirish uchun ularni turlarga ajratiladi va ular huquq tarmoqlari deb nomlanadi


keys bayoni

Huquq tizimi bu jamiyatdagi mavjud huquq normalarning bir butun voqealik sifatida harakatlanishi, huquq normalari va sohalarini muayyan izchilikda, o'zaro uzviy aloqadorlikda ijtimoiy munisabatlarning mehnat munosabatlari, ijtimoiy ta'minot, moliya va hikozalar kabi turlari alohida huquiy normalar orqali tartibga solinadi biz buni yuqoridagi jadval asosida ham ifodalab ko'rib chiqdik jamiyatda mavjud huquqy tizim malum izchilikda o'z faoliyat doirasida faoliyat olib boradi.

Keys topshirig'i

Siz olgan bilimlaringiz asosida Konstitutsiyaviy, mehnat va jinoyat sohasi huquq tarmoqlarini tavsiflang ?

O'qituvchining yechimi



XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki huquqiy bilim shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobjiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Huquqiy ta'lif va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rinn tutib qolmasdan ular o'rtasidagi huquqbazarlik va jinoyatlarni ham oldini olish imkonini beradi. Biz pedagogic jarayonda buning hech tomonini etibordan qoldirmasdan pedagogik jarayonni amalgam oshirsakgina haqiqiy bilimli yoshlarni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomndagi TDPU, 2009.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi: Nasaf, 2008.
3. Mahmudov R. Huquq va madaniyat g'Z.S.Zaripov tahriri ostida. – Toshkent, 2006.
4. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2-tomlik. –Toshkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007.-182-bet.